



Transformation processes in sculpture samples of Oxus civilization

Sevara RASULOVA¹

Termez State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024
Received in revised form
15 April 2024
Accepted 25 April 2023
Available online
25 May 2024

Keywords:

Southern Uzbekistan,
Southern Turkmenistan,
Southern Tajikistan,
northern Afghanistan,
Ancient India,
Harappa,
Mesopotamia,
Baluchistan,
Ancient East,
Karakum,
Namazgoh,
sculpture,
terracotta,
Bronze Age,
transformation.

ABSTRACT

In this article discusses the highly developed art of sculpture in the large countries of Central Asia, in the Bronze Age, the beginning of the history of these three regions from ancient times, and the idea of commonality in the future. In addition, the influence of the countries of the Ancient East and the issues of mutual transformation are analyzed in the sculptural examples of the Oxus civilization formed in the territory of these countries.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss4/S-pp88-96>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oks sivilizatsiyasi haykaltaroshlik namunalarida transformatsion jarayonlar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Janubiy O'zbekiston,
janubiy Turkmaniston,
janubiy Tojikiston,
shimoliy Afg'oniston,
Qadimgi Hindiston,
Xarappa,
Mesopotamiya,

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning yirik davlatlari hududlarida bronza davrida haykaltaroshlik san'atining yuqori darajada rivojlanganligi, ushbu uch mintaqqa tarixining ibtidosi qadimgi davrlardan boshlab mushtarakligi hamda kelajagi umumiylik g'oyasi ilgari suriladi. Qolaversa, ushbu davlatlar hududida shakllangan Oks sivilizatsiyasining haykaltaroshlik

¹ PhD Student, Termez State University. E-mail: rasulovas@gmail.com

Belujiston,
Qadimgi Sharq,
Qoraqum,
Oltintepa,
Namozgoh,
haykaltaroshlik,
terrakota,
ona haykali,
bronza davri,
transformatsiya.

namunalarida Qadimgi Sharq davlatlarining ta'siri va o'zaro transformatsiya masalalari tahlil etiladi.

Процессы трансформации в образцах скульптуры цивилизации Окса

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Южный Узбекистан,
Южный Туркменистан,
Южный Таджикистан,
Северный Афганистан,
Древняя Индия,
Хараппа,
Месопотамия,
Белуджистан,
Древний Восток,
Каракумы,
Алтынтепах,
Намазгох,
скульптура,
терракота,
статуя матери,
бронзовый век,
трансформация.

В данной статье рассматривается высокоразвитое искусство скульптуры в крупных странах Средней Азии, в эпоху бронзы, начало истории этих трех регионов с древнейших времен, а также выдвигаются идеи общности в будущем. Кроме того, на скульптурных образцах цивилизации Окса, сформировавшейся на территории этих стран, анализируются влияние стран Древнего Востока и вопросы взаимной трансформации.

KIRISH

Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmanistonning qadim o'tmishi va tarixi mushtarak bo'lib kelgan. Bunga asosiy omil yagonadir, Oks (Araks)-Amudaryonning [Geradot, I kitob] mavjudligi va ushbu davlatlar hududidan oqib o'tganligidir. Bronza davri kishilari uchun eng qadimgi dehqonchilik madaniyatlari qaror topishiga zamin hozirlagan [20.13]. Oks O'rta Osiyoning qadimgi jamiyatlarida har tomonlama mintaqalar uchun ilk sivilizatsiya beshigi hisoblanib kelgan. [22.10] Yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar doirasida bir qator ilmiy ishlar dunyo yuzini ko'rdi hamda Oks sivilizatsiyasi ijtimoiy xarakteri, madaniy aloqalari hamda tarixshunosligi o'zining isbotini topdi [23.22]. Oks sivilizatsiyasi dunyo tamaddunida o'zining ijodkorlik xarakteri bilan Qadimgi Sharqning birlamchi sivilizatsiyalari Mesopotamiya [10.66], Hind-Eron [5.551], Janubiy Osiyo [17.551] madaniyatlari bilan omuxtalashib, bevosita yoki bilvosita transformatsion jarayonlar natijasida yangi bir madaniyatning mahalliy varianti shakllandi, nafaqat shakllandi, balki aks ta'sir natijalariga ham erishdi [25.29-30]. Oks sivilizatsiyasining hududiy qamrov darajasi Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Afg'oniston, Janubiy Tojikiston va Janubiy O'zbekiston hududlarini o'z ichiga olib, uning popuk ildizi hisoblangan Janubiy Turkmanistondagi yodgorliklardan topilgan haykaltaroshlik namunalariga dastlab e'tibor

qaratib, so'ng esa qadimgi Sharq davlatlari bilan qiyosiy taqqoslaymiz. Chunki Oks sivilizatsiyaning tadqiqotchilari uning ildizlarini tashqaridan izlaydilar. Buning asosiy sabablari esa, Oks sivilizatsiyasi fortifikatsiyasidagi labirint tizim, sopol buyumlar gardishidagi zoomorf terrakotalar, xullas Oltintepa va Oks sivilizatsiyasi yodgorliklari moddiy madaniyatidagi "nomutanosibliklar" tadqiqotchilar yangi sivilizatsiya ildizlarini Qadimgi Sharq xalqlarining migratsiyasidan izlashlariga asos bo'lgan [22.83].

METODLAR

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning uch respublikasi mintaqasidan o'tgan asrning 60–70-yillaridan arxeologik ekspeditsiyalar natijasida aniqlangan yodgorliklar hududidan topilgan terrakotalar, haykaltaroshlik namunalari o'zaro qiyoslanadi, tanqidiy tahlil, xronologik izchilik va muammoli metodlardan foydalaniladi.

MUHOKAMA

Insoniyat tarixining uzoq o'tmishiga nazar tashlar ekanmiz, eng qadimgi odamlar nafaqat o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tdi, tabiatning shafqatsiz sinovlari oldida bardosh berdi, balki tabiatni, atrof olamni kuzata turib, ma'naviy dunyoni tushunishga intildi. Ma'naviy dunyoni tushunishga intilish o'z navbatida insonlar ongida turli xil mifologik tushunchalar kirib kelishini tezlashtirdi [3.195]. Ular mifologik qarashlarini turli xil xom ashyolardan terrakotalar yasab, o'z ongosti qiziqishlarini aks ettirdilar [30.130]. Qadimshunoslarning fikricha, eng qadimgi haykaltaroshlik namunalari Markaziy Osiyo mintaqasida janubiy Turkmaniston hududlarida neolit davridan boshlab yasala boshlagan. Albatta bu haykalchalar loydan yasali, asosan o'tirgan holatdagi ayollar tasvirlangan bo'lib, ular miloddan avvalgi VI mingyillikga tegishlidir [26.9]. Ammo haykalchalarni aksariyati eneolit davrida tegishli bo'lib, umumiy klassifikatsiyasi faqatgina hududiy yodgorliklar misolida amalga oshirilgan. Umumiy klassifikatsiya esa o'tgan asrning 70–80-yillarida amalga oshgan edi. O'z navbatida arxeolog V.M. Masson Qoraqum sarhadlarining markaziy va sharqiy qismlarida yastanib yotgan bu haykalchalarni uch xronologik davrga bo'ladi: **ilk eneolit** (miloddan avvalgi V–IV mingyillik), **rivojlangan eneolit** (miloddan avvalgi IV mingyillik ikkinchi yarmi), **so'ngi eneolit** (miloddan avvalgi IV mingyillik oxiri – III mingyillik birinchi yarmi).

Tadqiqotchilarning fikricha, Geoksur vodiysidagi Yalang'ochtepa manzilgohidan eneolit davriga oid jami 60 dan ortiq yalang'och ayol haykallari topilgan va ular ham ifodalanishiga ko'ra bir necha tiplarga ajratiladi. [35.160] Miloddan avvalgi III mingyillikning birinchi yarmida ya'ni ilk bronza davrida asosan mitti haykalchalar namunalari janubiy-sharqiy Turkmaniston hududlaridan asosan Xapuztepa yodgorligidan topilgan bo'lib, afsuski ular bo'laklardan iborat, butun qism aniqlanmagan, keyingi qidiruv ishlari Kopettog'ning quyi qismidagi Oltintepa va Namozgohtepa yodgorliklarida davom ettirildi. Ilk bronza davri haykalchalarining birinchi turi aksariyat namunalari asosan mramor, dolomit [27.312] toshdan yasalgan bo'lib qo'l, ko'krak sohalari ko'zga tashlanmaydi, ammo ikkinchi turdagi namunalarda ayol jinsiga mansub belgilari ya'ni yelka sohasi, oyoqlari bukilgan va o'tirgan holati yaqqol namoyon bo'ladi. Ilk bronza davri haykallarining e'tiborga molik jihati shundan iboratki, soch turmaklari 3 qismga ajratilib, ikki qismi ko'krak sohasiga, yana bir qismi orqa tomonga tashlangan holatda tasvirlangan. Huddi shunday terrakotalar shimoli-g'arbiy Suriyaning Tel-Taynat [15.7] va Pokiston Respublikasi hududida Peshovardan uncha uzoq bo'lmagan Charsala [6.369] yodgorliklaridan aniqlangan. Rivojlangan bronza avrida esa haykalchlarning

300 dan ziyod namunalari aniqlangan. Shuni aytish joizki, ilk bronza davriga nisbatan rivojlangan bronza davriga oid erkak jinsiga oid haykalchalar aksariyatni tashkil etadi. Bu esa katta patriarxal oilalarning hakllanishi va mustahkamlanayoganidan darak beradi. Janubiy Turkmaniston hududlaridagi haykalchalarning shakl-shamoyili Qadimgi Sharqning yirik davlatlari hududlarida topilgan haykallar bilan monandlikni tashkil etadi. Albatta buning ibtidosi bronza davridan ham avvalroq Joytun madaniyatiga borib taqaladi. [31.93] G. Chayld ushbu transformatsion jarayonlarga shunday to'xtaladi: hech bir joyda arxeologik yoki antropologik tadqiqotlar Qadimgi Sharqda bo'lganidek ajoyib kashfiyotlar qilinmagan. Shu jumladan tadqiqotimiz mavzusi hisoblangan haykaltaroshlik sohasi ham bundan mustasno emasdir. [24.24] Miloddan avvalgi III–II mingyilliklarda Xarappa va Mohenjadarо sivilizatsiyalarida haykalchalar asosan loydan yasalgan bo'lsa, tosh va metal haykalchalar ham yo'q emas. [28.50] Xarappada tashkil etilgan ilk sinfiy munosabatlar va ularning negizida turli sohalarda shakllangan transformatsion jarayonlarni arxeolog V.M. Masson Qadimgi Sharqning yirik davlati Shumer ta'siri emas balki aksincha mahalliy shart-sharoitlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Hind vodiysi havazalaridagi terrakota qadimgi hind madaniyatining ham badiiy, ham diniy jihatdan ahamiyatlidir. Uning hududiy chegarasi nafaqat Shumer, Elam O'rta Osiyo mintaqalari, balki Egey dengizi havzalari bilan ham tutashadi. [9.130.] Ammo ba'zi statuetkalarda ko'zlarning katta oval ko'rinishida ifodalanishi Qadimgi Mesopotamiyaning Kish [29.272] shahrida topilgan haykalchalar bilan uyg'unlikni tashkil etadi. Qolaversa, Xarappa madaniyatiga oid haykalchalar bezatilishiga ko'ra juda boydir. Erkak haykalchalar asosan kalta yubkalarda tasvirlangan. Erkak jinsiga mansub haykalchalarning o'tirgan yoki tik turgan tasvirlari Janubiy Turkmanistondagi tasvirlarni takrorlaydi. Umumiy qilib aytgan Hind vodiysidagi terrakotalar bosh kiyimlari va qo'llarining holati bilan Janubiy Turkmanistondagi terrakotalar bilan umumiylikni tashkil etadi. Zabardast arxeolog V. Masson O'rta Osiyoning bronza davriga oid haykallarini umumiy qilib uchta katta guruhga bo'ladi. Bular ayol, erkak va antropomorf haykallar hisoblanadi. Albatta birinchi turdagi haykallarning salmog'i ko'pdir, ammo Namozgoh III davridan boshlab erkak jinsiga mansub haykallar soni ko'payadi. Bundan tashqari Shimoliy Afg'oniston hududidagi Dashli III manzilgohidan metallardan yasalgan terrakotalar, tesha, bolta vazifasini ham o'tagan. Ular 4 tani tashkil etib, 3 tasi zoomorf (hayvon shaklli) haykali ish quroli bo'lsa, 1 tasi antropomorfdir. [33.75] Dashli III manzilgohida aniqlangan zoomorf va antropomorf haykallarning ibtidosi bronza davridan ham ertaroq eneolit davriga borib taqaladi. Bunday haykallarning o'zaro uyg'unligi Eron va Janubiy Turkmanistondagi loy va toshdan hayvon shaklli tasvirlar tashkil etadi [18.4]. Yuqoridagi barcha haykallarning vazifalari turlichadir. Ba'zi birlari diniy maqsadda kenotaf qabrlar uchun yasalgan bo'lsa, IOTAKE mintaqasidagi haykallarda o'ychan ayollar tasviri (xuddiki ayollar obrazi rizq-ro'z, nasiba timsoli sifatida) ifodalangan.

O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri san'ati ibtidoiy jamoa tuzumi doirasida rivojlangan bo'lib, uning asosan amaliy tabiatini belgilab bergan. Ammo xalq tajribasining kelib chiqishi san'atning keyingi rivojlanishi uchun asos bo'ldi. Miloddan avvalgi III mingyillikda yasala boshlagan haykallarning aksariyati ona kulti muqaddas olovning posboni sifatida qaralgan.

Eneolit va bronza davrlarida O'rta Osiyoda yashagan xalqlar va qabilalar san'atida ulkan yutuqlarni qayd etish mumkin. Mamlakatning janubi-g'arbiy qismidagi dehqonlar alohida muvaffaqiyatlarga erishdilar, bu borada Eron va Afg'oniston bo'yalgan

kulolchilikdan an'ana va texnikada farq qiluvchi maxsus badiiy rassomchilik maktabi haqida gapirish mumkin. Shu bilan birga, O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy qismidagi qabilalar san'atida Elam va Mesopotamiya shahar sivilizatsiyalarining yuksak madaniyati bilan bog'liqlikni kuzatish mumkin [27.312].

1969-yilda Janubiy Turkmanistonning Oltintepa manzilgohida №9 qazishma ishlari Namazgoh V davriga oid arxeolog Yu.E. Berezkin, tomonidan 0,5 gektardan oshiqroq maydonda ayol jinsiga mansub haykallar aniqlandi. Ushbu ekspeditsiya natijasida Oltintepa manzilgohining ustki qismidan jami 95 dona ayol haykallar topildi va ular 7 ta tipga ajratildi. Shulardan 6 tasi sharqiy yodgorliklar (Oltintepa, Xapuztepa) tipiga kirsa, 1 tasi g'arbiy yodgorlik (Namozgohtepa) tipga mansub edi. Jumladan 71 tasi yetarli darajada yaxshi saqlangan. Oltintepa haykallari kolleksiyasi umumiy 2 guruhga ajratilgan. 1-guruh haykallari 64,4 %, ostki qismi 70-90 gradusda ishlanib, yelka va bel sohasi kengroq, orqa qismiga qo'lda yopishtirilgan sochi ko'krak qismigacha tushib turibdi. Bosh kiymi vertikal holatda va ushbu guruhning asosiy belgisi aksariyat haykallar o'tirgan holatda ishlangan. 1-guruh haykallari o'z navbatida 4 ta tipga ajratiladi. 1-tipdagi haykallar 19,7 %ni tashkil etib, uch qirrali shaklda va bosh kiyimda shaklda bo'lib bo'yi 20 smni tashkil etadi. 2-tipdagi haykallar charaqlagan yulduzning yon tomoni sifatida ifodalanib asosan bo'laklardan iborat. 3-tipdagi haykallar esa shoxona qiyofada 4-tipdagi haykallar ham shunga o'xshash va ayri hollarda bosh kiyim bilan tasvirlangan [21.22].

V.M. Masson va V.I. Sarianidilarning fikri Berezkin fikriga nisbatan boshqacharoq ya'ni ular №9 qazuv ishlarida jami 88 ta haykallarning guruhiga va tipiga ko'ra 1-guruh 51,2%, 1-tip 15,5% Namozgoh tipi esa 4,5% figuralarga ajratgan. Bundan tashqari №9 ekspeditsiyasi natijasida 25X15 metr maydonda 4 ta qabr uchratilib ularda 6 ta ayol haykallari aniqlangan va ularning barchasi 1-guruhga mansubdir (ushbu qabrlardan birida bronza muhr ham topilgan). 1966-yildagi № 5 qazishmasida manzilgoh chetida bir kohin-ayol qabri aniqlangan. Kohin-ayol deb atashimizga sabab uning bir qo'lida 2 ta haykalcha (№ 9 qazishmasidagi 2-guruhga tegishli) bilan birga tog'ri to'rtburchak shaklli muhr topilgan. Aftidan bu belgilar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi dualistik qarshilar, yer osti va usti dunyoning mutanosibliigi, tug'lish va o'lim o'rtasidagi dualistik qarshilarning aksi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kichik Mesopotamiya sifatida Eronning janubiy-g'arbida va Dajla va Frot daryolarining pastki havzasida joylashgan pasttekislikda Elam davlati joylashgan bo'lib, aynan qadimgi Sharqning bu davlati bilan Oks sivilizatsiyasi aholisi bilvosita va bevosita madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishgan. Bundan tashqari Eron va Mesopotamiyani bir-biriga bog'lab Old Osiyo mintaqasining ham qadimgi madaniy markazlardan biriga aylangan. O'tgan asrning 80-yillarida ham Yaqin Sharqning uch mintaqasi Mesopotamiya va Elam, Anatoliya, Levant hududlaridagi haykallarning qiyosiy metodlar bilan tahlil qilgan arxeolog Spykcet Elamning Narundi mabudi haykallarini o'rgandi [16.102]. Hattoki o'z davri uchun san'at, haykaltaroshlik maktablari shakllandi [2.211]. O'z davri uchun juda qudratli markazlashgan davlatga asos solib, bir necha asrlar davomida shumerliklarga, bobilliklarga va ossuriyaliklarga qarshilik ko'rsatibgina qolmasdan Mesopotamiya davlatlariga qarshi bir necha bor hujumga o'tgan. Bunday kuch qudratga ega xalqlar o'zidan takrorlanmas madaniyat qoldirmasligi mumkin emas. Elamda o'tkazilgan qazishmalar vaqtida qadimgi o'ziga xos Elam madaniyatining o'ziga xos yodgorliklari aniqlangan [19.607]. Mesopotamiya haykallari singari Elamda ham eng qadimgi haykallarning namunalari miloddan avvalgi IV mingyillikda qadimgi Suza shahri

xarobalari ostidan aniqlangan. Ularning aksariyati yalang'och ayol va ho'kiz tasvirlari tashkil etadi. Asosan xonadonlarda, diniy va dafn marosimlarida foydalanilgan. Ammo haykallar arxeologik qazishmalar vaqtida emas, balki eski shahar xarobalari ko'chalarida uchraydi. Shunday haykallardan biri Suza shahar xarobalarida aniqlangan ikki qo'llari bilan ko'krak sohasini ushlab turgan yalang'och holatdagi ayol tasviridir. Haykallarning yalong'och holatdagi tasviri tug'ilish va o'lim, jinsiy munosabatlarning yorqin ifodasidir. Ushbu haykallarning xronologiyasi miloddan avvalgi 2000–1750-yillardir [4.36].

Qadimgi hind madaniyatidagi oid haykallarga keladigan bo'lsak, tabiiy sharoitiga ko'ra eng qadimgi haykallar toshdan yasalgan bo'lib, 3 mingyillik tarixga egadir. Albatta hind vodiysining moddiy madaniyati Markaziy Osiyo mintaqasi bilan chambarchasdir. [12.3] haykallarning davri va uslubiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Miloddan avvalgi II mingyillikda Mathura vodiysida topilgan ayol haykalining yuz sohasida burunning shakllantirish uchun oddiy usuldan ya'ni yuz qismning ikki tomonidan chimchilagan holatda shakllantirgan, peshona sohasi esa uzviy davom ettirilgan. Ko'z qovoqlari esa ajralib turadi, lablar kichikroq, ko'krak sohasi barcha qismlar yasalgan maxsus qoliplarda quyilmagan. Qadimgi hindlarning toshdan yasalgan haykallarining Qadimgi Sharqda uchramaydigan jihatlaridan biri haykal bezaklaridir, bo'yin va quloq sohalaridagi qo'sh ziraklar, albatta bu xususiyat hind xalqining o'ziga xos qadriyatlaridan biridir. Qo'llar esa qisqaroq huddiki shunchaki tasvirlagandek tuyuladi, oyoqlari esa bir nuqtada kesilgan chiziq bo'ylab tutashadi. Ushbu haykal toshdan yasalganidan qat'iy nazar nafislik va bejirimlikdan xoli emas. Bunday haykallarning namunalari Taxila, Xarappa, Mohenjadar, Bhati, Basarh. Sankisa va Pataliputra manzilgohlaridan ham topilgan [1.90]. Aynan miloddan avvalgi III mingyillikda so'ngi davrlarida kelib Murg'ob daryosi havzalarida yashayotgan xalqlar madaniyatida yuksalish kuzatiladi. Albatta bu Marg'iyonadagi Gonurdepe yodgorliklaridan topilgan muhrlar, yuqori sifatli sopollar, terrakotalar, oltindan yasalgan buqa boshining tasvirlari xullar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kuzatiladi. Ayrim tadqiqotchilar bu transformatsion jarayonlarni G'arbiy Osiyo, Elam va Hindiston xalqlarining bir-birlari bilan madaniy aloqalarini eng kuchaygan davri deb hisoblasalar yana boshqa birlari esa bu davr shimoliy va janubiy Osiyo mintaqalarini qolaversa Yevroosiyo ko'chmanchi xalqlarini janubiy mintaqalar sari assimillatsiya jarayonlarini boshdan kechirgan deb hisoblashadi [8.134].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamochimanki, Markaziy Osiyoda asos solingan Oks sivilizatsiyasida haykaltaroshlik namunalari transformatsion jarayonlar bevosita migratsion jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Eng qadimgi dehqon jamoalari Eronning shimoliy – sharqiy mintaqasi orqali Turkmanistonning g'arbiy hududlarida neolit davridan boshlab siyosiy va etnomadaniy jarayonlar sodir bo'la boshlagan [32.113]. Aynan mana shu migratsion jarayonlar natijasida ushbu mintaqalarda yashovchi xalqlarning ham siyosiy, ham ijtimoiy, ham madaniy hayotida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Biz buni yuqorida haykaltaroshlik namunalari kuzatdik. Bizgacha ham Maraziy Osiyo mintaqasining haykaltaroshlik namunalarni Mesopatamiya – Suriya va Elam mintaqalari bilan qiyosiy tahlili ustida bir necha izlanishlar olib borilgan edi [3.209]. Albatta ushbu tadqiqotlar markazida uch mintaq san'atining barcha sohalar jumladan haykaltaroshlik sohasiga keladigan bo'lsak, asosan hayvonlar timsoliga asosiy e'tibor qaratilgan [11.89]. Biz esa tadqiqot markazida Oks va Xarappa sivilizatsiyalari

hamda Elam davlati hududlaridagi bronza davri ayol haykallarning timsolini qo'ydik. Albatta bu uch hudud ya'ni Oks sivilizatsiya, qadimgi Elam davlati va qadimgi Hindiston sivilizatsiyalarida bronza davrida tarqalgan haykallarning asosi ildizi bir xil ya'ni haykallarning aksariyatida yalong'och holatdagi ayol tasviridir. Umumiy belgilaridan yana keltiradigan bo'lsak, oyoq qismi bir vertikal chiziq bo'ylab jipslashtirilgan, bellarining juda tor, yelka sohalarining kengroq, goh bosh kiyimda yoki sochlari bilan birga tasvirlangan bo'lib go'yoki butun diqqat e'tiborni o'ziga jalb etayotgandek tuyuladi. Farq qiladigan jihatlari ham yo'q emas, chunki tabiiyki har bir mintaqaning o'ziga xos uslublari, individial jarayonlarning ta'siri ham kuchlidir. Masalan Xarappa sivilizatsiyasiga oid haykalda zargarlik buyumlarining (bunday zargarlik buyumlardagi transformatsion holatlarini Sopolli madaniyatiga ham kuzatishimiz mumkin [34.187]) ifodalanishidir yoki qadimgi Elamdagi yalang'och haykalning yelka va oyoq sohalari kengroq qilib tasvirlangan. Bizningcha har bir madaniy migratsiyalar dastlabi ibtidosi integratsiyaviy jarayonlar bilan boshlansa, keyin adabtatsiya (moslashuv) hosil bo'ladi, so'ngi kulminatsion nuqtasi esa transformatsiyaviy jarayonlardir. Namozgoh III davriga tegishli haykallar, aynan ushbu davrda qadimgi Mesopatamiyaning Uruk shahar-davlati hujumlari kuchaygan hamda Yaqin Sharq, Mesopatamiya va Markaziy Osiyoda yashayotgan xalqlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlann davr sanaladi. Markaziy Osiyodagi haykalchalar ushbu integratsiyalar natijasida ancha nafisroq bo'lib shakllanadi va birlamchi sivilizatsiyalarning ta'siri natijasida alohida qadimgi dunyoning o'ziga xos haykaltaroshlik sohasida an'ana va innovatsiyaning paydo bo'lishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ananda Coomaraswamy. Early Indian Terra Cottas. Bulletin of the Museum of fine arts, 1927. Volume 25, N 152, p 90-96.
2. Angela Bellia & Clemente Marconi. Musicians in ancient coroplastic art. Iconography, ritual contexts, and functions. 2016, p. 211.
3. Annie Caubet. Myths and gods in the Oxus Civilization. The world of Oxus civilization. Routledge 2021. Pages 195.
4. Annie Caubet. Terracotta Figurines of Musicians from Mesopotamia and Elam. Roma 2016. P 39.
5. Benjamin Mutin and C.C. Lamberg- Karlovsky. The relationship between the Oxus Civilization and the Indo-Iranian borderlands. The world of Oxus civilization. Routledge 2021. Pages 551.
6. Bridget and Raymond Allchin. The Rise of Civilization in India and Pakistan. Cambridge University Press. Pages-369.
7. Geradot. I kitob.
8. Ljubov' B. Kircho. The rise of the early urban civilization in southwestern Central Asia: from the Middle Chalcolithic to the Middle Bronze Age in southern Turkmenistan. 2021. P. 134.
9. Mackay E. Early Indus civilizations. London, 1948. P. 130.
10. Michael Guichard. The Oxus civilization and Mesopotamia: a philologist's point of. The world of Oxus civilization. Routledge 2021. Pages 66.
11. Pittman Holly. Art of the Bronze Age: Southeastern Iran, Western Central Asia, and the Indus Valley. New York 1984. P 89.

12. Rajesh S.V, Abhayan G.S, Preeta Nayar. Research on Indus civilization in the wake of hundred years of excavation at Harappa. India. 2023. P 3.
13. Rasulova, S. (2022). JANUBIY OZBEKISTON MINTAQASIDA SOVETLAR DAVRIDA BRONZA DAVRIGA OID MANZILGOHLARNING ORGANILISH TARIXSHUNOSLIGI. Евразийский журнал академических исследований, 2(5), 86-91.
14. Rasulova S. Ch. Shaydullayeva G. Sh. Oks va Xarappa sivilizatsiyalari madaniy aloqalarni o'rganishda oltin buyumlarni o'rni. "Markaziy Osiyo xalqlari moddiy ma'naviy madaniyati: zamonaviy tadqiqotlar, muammo va o'rganish usullari" amaliy anjumani. O'zbekiston. Jizzax. 31-oktabr, 2023-yil. 55-59-betlar.
15. Stanley Klassen. Tell Tayinat archaeological project (TAP): seasons 2017-2019. The Canadian society for Mesopotamian studies journal. 2022.// Stanley Klassen. The Madaba settlement cluster and the nature of early bronze age urbanism in the Central highlands of Jordan. Transitions, Urbanism, and Collapse in the Bronze age- essays in honor of Suzanne.
16. Spycket. A. La statuaire du proche-orient ancient. 1984, pp.102-104.
17. Shereen Ratnagar. Interaction between the worlds of South Asia and Central Asia. The world of Oxus civilization. Routledge 2021. P. 551.
18. Абоу аль-Хассан Махм Оуд Бакри Моусса. Вопросы взаимосвязи культур Ирана и Южной Туркмении: интерпретация изображений животных на керамических и каменных изделиях эпохи энеолита. Москва 2005. С 4.
19. Авдиев В. И. Қадимги Шарқ тарихи. Тошкент 1964. – С 607.
20. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. Ташкент, «ФАН», 1977// Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА 73, Ленинград, 1959// Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – М., 1977.
21. Березкин. Ю.Е. Краткие сообщения. Археология Сибири, Средней Азии и Кавказа. 167, С 22.
22. Боқиев А, Шайдуллаев А, Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. – Тошкент, 2015// Francfort Henri-Paul. «Observations sur la toreutique de la civilisation de l'Oxus», dans Osmund Vopearachchi, Marie-Franzoiise Boussac., Afghanistan,ancien carrefour entre l'Est et l'Ouest, (Indicopleustoi, 3), Turnhout, 2005//Bertille Lyonet, Nadejda Dubova. The world of Oxus civilization. Routledge 2021. Pages 932.
23. Боқиев А.А. Окс цивилизациясининг ижтимоий характери. Тарих фанлари. Phd. Афтореф. Термиз 2021. 22-bet// Шайдуллаева Ш.Г. Окс ва Хараппа цивилизациярининг маданий алоқалари. Тарих фанлари. Phd. Тошкент 2021. 137-bet.// Xurramov X.B. Oks sivilizatsiyasi tarixshunosligi.(Germaniya olimlari tadqiqotlari misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati.Termiz 2024. B. 52
24. Гордон Чайлд. Древнейший Восток в свете новых раскопок. М., 1956. С. 24.
25. Массон В.М. Первые цивилизации. Л., 1989. С 29-30.
26. Массон В.М. Сарианиди В.И. Среднеазиатская терракота эпохи бронзы. Москва. 1973. С 9.
27. Массон В. Е. Драмлян, Л.Н. Дробов, М.Я. Лившиц, П.В. Попов, О.П. Попова, Г.А. Пугаченкова, Г.А. Сарыкулова, Ю.Я. Турченко, Н.В. Черкасова. Искусство Средней Азии эпохи неолита и бронзового века. — М.: Изобразительное искусство, 1971. — 312 с.

28. Массон. В. М. Джейтун и Кара-Тепе. СА. 1957//Джейтунская культура. Тр. ЮТАКЭ, т. X. Ашхабад, 1960 (1961)//Новые раскопки на Джейтуне и Кара-Тепе. СА, 1962// Mellart. J Earliest Civilizations of the Near East. London, 1965.
29. Массон В. М. Средняя Азия и Древний Восток. М. 1964. С 272.
30. Мифология древнего мира. – М., 1977. С.130.
31. Сагдуллаев А.С. Абдуллаев У.И. Матякубов Х.Х. Шайдуллаев А.Ш. Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври ёдгорликларининг географияси ва картографияси. Тошкент. 2019. С 93.
32. Сагдуллаев А.С., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ж.Э. О древневосточных и евразийских миграциях в Центральную Азию. Ташкент. 2023. С.113.
33. Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – М., 1977. С. 75-76.
34. Хамидов О.А., Каттаева Г.Ч. Типология булавок культуры Сапалли. Kazan, Tatarstan. Поволжская археология № 4 (46) 2023. С. 187.
35. Хлопин И. Н. Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита. Ленинград 1964. С. 160.